

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Kimyo-texnologiya” fakulteti

“Kimyo-texnologiya” kafedrası

Himoyaga ruxsat etildi
Fakultet dekani t.f.n. dots.

_____A.Мамаханов
“ ____ ” _____2017 yil.

5320800-Matbaa va qadoqlash jarayonlari texnologiyasi ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi

Hasanov Ilhomjon Ikromjon o'g'li

“Chortoq tumani sharoitida tezkor bosish sexini loyihalash” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi:

I.I.Hasanov

(imzo)

Ilmiy rahbar

kat.o'q. A.Jo'raev

(imzo)

Kafedra mudiri

t.f.n. dots. D.Sh. Sherqo'ziyev

(imzo)

NAMANGAN-2017

MUNDARIJA

I. KIRISH	3
1.1. Rizograf asosidagi mini bosmaxona	5
II. TEXNOLOGIK QISM	7
2.1. Rizografiya va rizograflar haqida umumiy ma'lumotlar	9
2.2. Rizografning qo'shimcha butlash jihozlari	10
2.3. Rizografni ishga tayyorlash	12
2.4. Asl nusxalarga qo'yiladigan talablar	12
2.5. Rizografning ishlash prinsipi	14
2.6. Qog'ozni harakatlantirish mexanizmi	14
2.7. Bosma qolipini tayyorlash	16
2.8. Chortoq tumani sharoitida mini bosmaxona uchun asosiy uskunalarni tanlash	19
III. TEXNOLOGIK QISM	35
3.1. Nashr tavsifnomasini ishlab chiqish	36
3.2. Mahsulot ishlab chiqarish texnologik sxemasini tuzish	37
3.3. Terish elementlari sonini hisoblash	38
3.4. Rizografda bosish bo'yicha ish hajmini hisoblash	39
3.5. Nashrlarni ishlab chiqarish mehnat sarfini hisoblash	39
3.6. Mini bosmaxona uchun zaruriy uskunalarni sonini hisoblash	42
3.7. Mini bosmaxonadagi ishchilar sonini hisoblash	42
3.8. Sarflanadigan materiallarni miqdorini hisoblash	43
3.9. Mini bosmaxonaning ishlab chiqarish maydonini hisoblash	43
IV. IQTISODIY QISM	45
4.1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxining yakuniy jadvali	51
4.2. Davr xarajatlarining taqsimlanishi	51
4.4. Korxona faoliyatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari	52
V. MEHNAT MUXOFAZASI VA EKOLOGIYA	54
5.1. Kichik bosmaxonada mikroiklim sharoitlari va yong'in xavfsizligini ta'minlash	54
5.2. Ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni yong'in xavfsizligini ta'minlash	57
VI XULOSALAR	59
VII FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI	61

KIRISH

2017 yil 14 yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017 yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisi bo'lib o'tdi. Majlis ishida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati rahbarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchilari, hukumat a'zolari, xo'jalik birlashmalari, jamoatchilik tashkilotlari rahbarlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashi raislari, viloyat, shahar va tuman hokimlari qatnashdilar. Birinchi bor viloyat, shahar va tumanlar markazlarida tashkil etilgan studiyalar bilan videokonferensiya aloqasi orqali hukumat majlisida mahalliy hokimiyat, vazirlik, idoralar hududiy bo'linmalari, korxonalarning rahbar xodimlari va tadbirkorlar ishtirok etdilar [1].

Ma'ruzada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida ishlab chiqilgan taraqqiyotning "O'zbek modeli"ni va mamlakatni o'rta muddatli istiqbolda yanada isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va modernizatsiya qilish Dasturini izchil amalga oshirishni davom ettirish 2016 yilda iqtisodiy o'sishning barqaror va yuqori sur'atlarini saqlab qolishni va makroiqtisodiy muvozanatni, aholi hayot darajasi va sifati oshishini ta'minlaganligi qayd etib o'tildi [2].

Matbaachilik sohasida ham mustaqillik davrida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Amalga oshirilayotgan islohotlar sohada ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritish uchun zamin yaratish bilan birga, barqaror rivojlanishiga keng imkoniyatlarni yaratib berdi. Mustaqillik yillarda ushbu tarmoqni rivojlantirish yo'lida sohaning huquqiy-me'yoriy bazasini shakllantirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasida matbaa faoliyatini tartibga solish to'g'risida»gi 52-son qarori, 2002 yil 27 dekabrda «Matbaa korxonalarini ro'yxatga olish va hisobga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» 454-son qarori,

2006 yil 16 aprelda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan № 1561 raqami bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 2006 yil 15 martdagi «Nashrlarni chop etish qoidalarini tasdiqlash haqida»gi 29-sonli bуйrug'i shular jumlasidandir. Davlatimiz tomonidan yaratilgan keng sharoit tufayli matbaa korxonalarining rivojlanishi, sohaga yangi texnologiyalarning kirib kelishi bilan ichki bozorimizdagi matbaa mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj qondirila boshlandi. O'z navbatida bu jarayon ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini oshib borishiga ham olib keldi[3].

Yaratilayotgan keng imkoniyat sababli, so'nggi yillarga kelib matbaa korxonalarining soni ham ortib bordi. Agar 1990 yilda Respublikada 149 ta bosmaxona faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, bugun ularning soni 1719 taga etgan (01.01.2016 yil holatiga).

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda.

Aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tasdiqlansin:

Harakatlar strategiyasini o'z vaqtida va samarali amalga oshirish barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatining birlamchi vazifasi va bosh ustuvor yo'nalishi hisoblanadi;

Harakatlar strategiyasi besh bosqichda, yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshiriladi.

2017 yil O'zbekiston Respublikasida «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili» deb e'lon qilingani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta

ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlansin.

Ishlab chiqarishdan maqsad: Ishlab chiqarish chiqimlarini rasionallashtirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini o'rtacha 11,2 foizga, yalpi ichki mahsulotning energiya sarfi ko'rsatkichini esa 15,3 foizga pasaytirish taminlandi.

Respublikaning bank tizimi barqaror faoliyat ko'rsatmoqda, uning kapital etarliligi darajasi minimal xalqaro standartlardan 3 baravar ortiq miqdorda saqlanib qolmoqda, likvidligi esa eng yuqori talablardan 2,2 baravar ko'pdir. O'tgan yili tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga ko'paydi, kredit portfeli jami summasining 80 foizga yaqini ichki manbalar hissasiga to'g'ri keladi.

Qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish borasida tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi. Kichik biznes sohasini yanada rivojlantirishga ko'maklashdi. Kichik tadbirkorlik sohasida 26 mingtadan ortiq yangi subekt tashkil etildi, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 55,8 foizgacha o'sdi.

Aholi bandligini oshirish dasturini bajarish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar 2013 yilda qariyb 970 ming nafar kishining ishga joylashtirilishini taminladi, ulardan 60,3 foizdan ortig'i qishloq joylarga to'g'ri keladi. Kasb-hunar kollejlarining 500 ming nafardan ortiq bitiruvchilari ishga joylashtirildi.

1.1. Rizograf asosidagi mini bosmaxona

Mini bosmaxona atamasi o'tgan asrning 90-yillarida paydo bo'lgan. Aksariyat holatlarda mini bosmaxona asosini rizograf yoki raqamli bosma uskunasini va unga to'ldiruvchi sifatida turli bosishdan keyingi ishlov berish uskunalarini, varaq yig'uvchi, muqovalovchi, qog'oz qirquvchi va boshqa uskunalar tashkil qiladi. Bunday bosmaxonalar kam adadli (ba'zida o'rta adali) mahsulotlarni qisqa vaqtda tayyorlashga mo'ljallangan.

Rizograf asosidagi bosmaxona kichik xonalarda joylashishi mumkin. Bu uskunalar shovqinsiz ishlaydi, zarali chiqindilar chiqarmaydi, unumdorligi bo'yicha esa ofset bosma uskunalariga bir oz yutqazadi. Rizografga xizmat ko'rsatish uchun malakali ishchilar talab qilinmaydi. Bu omillar juda muhim, chunki zamonaviy bozor sharoitlarida turli tashkilotlarda mahsulot bosish masalalarini hal qilishga imkon beradi. Bunday mini bosmaxonalar ilmiy va o'quv muassasalari uchun juda dolzarb. Ularda chiqariladigan avtoreferatlar, monografiyalar, hisobotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar katta adadi bilan ajralib turmaydi. Katta bosmaxonalar bilan bog'liq nashriyotlar kam adadli mahsulotlarni uncha xushlamaydilar. Katta bosmaxonalar uchun ham bunday adadlar samarali emas.

Shuning uchun qimmat bo'lmagan, unumdorini texnikadan foydalanish kerak. Bosma mahsulotlarini arzon va sifatli chiqara oladigan texnika rizografdir.

Rizografiya asosida yaratilgan mini bosmaxonalar yurtimizda ko'p yillardan beri faoliyat ko'rsatmoqda.

Ob'ekti: Chortoq tumanidagi bosmaxonalar.

Predmeti: Tezkor matbaa bosmaxonalarida ishlab chiqariladigan mahsulotlar.

II. TEXNOLOGIK QISM


2.1. Rizografiya va rizograflar haqida umumiy ma'lumotlar.

Rizografiya (raqamli rotatsion trafaret bosma) an'anaviy trafaret bosma texnologiyasi bilan uyg'unlashgan raqamli texnologiyalarga asoslangan bosma usuli hisoblanadi. Rizograf rizografiyaning texnik jihatdan ro'yobga chiqishi hisoblanadi.

Rizografning umumiy ish printsipini ko'rib chiqamiz (rasm 1). Rizografning ishlashini ikki bosqichga ajratish mumkin - bosma qolipini tayyorlash va bevosita bosish. Rizografning asosiy afzalliklaridan biri shuki, bu ikki jarayon bita qurilmada uyg'unlashgan.


Bosma qolipini tayyorlash quyidagicha boshlanadi. Ko'paytirishga mo'ljallangan aslnusxa-maket rizografga o'rnatilgan skanerga joylanadi. Skanerning o'qishi jarayonida olingan axborot raqamlashtiriladi. Foydalanuvchining buyrug'iga muvofiq dasturlar vositasida olingan raqamli axborot termoboshchani boshqarish qurilmasiga etib keladi. Bu vaqtda rizograf ishlatilgan bosma qolipini avtomatik ravishda boksga o'tkazadi va rulondan master-plenka (qolip material) ni yoyadi. Keyin bu material termoboshcha ostidan o'tadi. U skanerlangan aslnusxa-maketga muvofiq qolip materialida mayda teshikchalarni kuydiradi. Bu vaqtda foydalanuvchi ko'rsatmalari bo'yicha aslnusxani masshtablash, nusxalar kontrastini sozlash va boshqa sozlashlar amalga oshiriladi. Shunday tarzda tayyorlangan bosma qolip qolip tsilindri yuzasiga mahkamlanadi. Qolip tsilindri to'rli tuzilishga ega. Uning ichki qatlami tubadagi bo'yoqni shimib oladi. Bo'yoq bosma qolipga shimiladi va termoboshcha tomonidan ochilgan teshiklardan o'tib, aylanayotgan qolip tsilindri ostidan o'tuvchi qog'ozga yuqadi. TSilindrning aylanishida nazorat nusxasi olinadi. Rizografning modeli va bosish o'lchamiga bog'liq bo'lsa bu bosqich 10-24 soniya davom etadi.

Ikkinchi bosqich, ya'ni bosishda qolip tsilindrida aylanishga keltiriladi. Uzatish savatchasidagi qog'oz varag'i uzatish mexanizmi yordamida qolip tsilindri va bosish valigi orasiga yo'naltiriladi. Bo'yoq qolipdagi teshiklar orqali bosiluvchi materialga ko'chiriladi. Keyin bosilgan varaqlar qabul savatchasiga tushadi.



Rasm 1. Rizografning umumiy ish printsipli

Bu apparatlarning asosiy afzalliklaridan biri tejamkorlik hisoblanadi. Rizografda bosishda adad narxining katta qismini bosma qolipini tayyorlashga ketgan harajatlarni tashkil qiladi. Bosish jarayonida faqat tasvirni shakllantiruvchi bo'yoq sarflanadi. Adad narxining asosiy qismini o'zgarmas harajatlarni tashkil qilgani uchun adad oshib borishi bilan nusxaning tannarxi pasayadi. Turli bosish va nusxa ko'chirish qurilmalarida olingan nusxalar narxining adadga bog'liqligi rasm 2 da keltirilgan.



Rasm 2. Turli adadlarda bita nusxa uchun sarflanuvchi materiallarning harajatga bog'liqligi

Rasmdan ko'rinib turibdiki, 20 nusxadan ko'p adadda tannarx nusxa ko'chirish apparatida olingan nusxaga nisbatan sezilarli pasayib boradi. 1000 nusxagacha bo'lgan adadlarda tejamkorlik jihatdan rizografning raqobatchilari deyarli yo'q. Adad oshib borishi bilan rizografda olingan nusxa tannarxi pasayib boradi va

deyarli qog'oz nurxiga yaqinlashadi. Master-plenkada tayyorlangan bitta bosma qolipdan sifat yo'qotmasdan 4000 tagacha nusxa olish mumkin. Rizograflarni amalda qo'llash shuni ko'rsatdiki, matnli aslnusxalar uchun bita bosma qolipdan 2-3 marta ko'p nusxa olish mumkin.

Rizograflar yuqori unumdorlikka ega. Modelga bog'liq holda bosish tezligi 60, 120, 150 yoki 180 nusxa/daqiqani tashkil qiladi. Bu printer yoki nusxa ko'chirish apparatlari ko'rsatkichlaridan ancha yuqoridir. Rizograf 24 soatli yuklamada ishlashi mumkin. Bundan tashqari, ta'kidlash joizki, rizograf foydalanishda juda sodda. Undan foydalanish uchun xodimlardan yuqori malakat talab qilinmaydi. Puxta o'ylangan va qulay boshqaruv paneli, sarflanuvchi materiallarni oson almashtirish rizografni boshqarishni bir necha soatda o'zlashtirishga imkon beradi.

Jarayonning yuqori darajada ekologik tozaligi ham juda muhim. Rizografning barcha sarflanuvchi materiallari zararli qo'shimchalarga ega emas. Ishlash jarayonida bu apparatlar toksik moddalar ajratmaydi, ular shovqinining pastligi esa ofislarda foydalanishga ham imkon beradi. Rizograf va foydalanuvchi materiallarning barcha modellari uchun xavfsizlik standartlariga muvofiqlik sertifikatlari olingan.

Rizograf zichligi 46 g/m^2 dan 210 g/m^2 gacha bo'lgan keng diapazondagi qog'ozlarga tasvir bosish imkonini beradi. Yelimlanish darajasi o'rtacha bo'lgan qog'ozlardan foydalangan ma'qui. Yaltiroq va bo'rlangan qog'ozlardan foydalanib bo'lmaydi. Bu shu bilan bog'liqki, rizografda qo'llanadigan glitseringa asoslangan bo'yoq qog'ozda shimilishi hisobiga mustahkamlanadi. Qo'llanadigan qog'oz turlari uchun bu vaqt bir necha soniyani tashkil qiladi.

Rizografda ko'p bo'yoqli mahsulotlarni ko'paytirish mumkin (19 tagacha rang turini tanlash mumkin). Barcha modeldagi rizograflarda bu ish bo'yoq tubasiga ega qolip tsilindrini almashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi (bitta tuba bo'yoq o'rtacha 18000-36000 A4 nusxa bosishga etadi). Bu tsilindrdan har biri ma'lum rangli bitta bo'yoqda bosishga mo'ljallangan. Shuning uchun har bir qo'shimcha rang aslnusxa skanerlangandan keyin va tegishli rang uchun bosma qolip tayyorlangandan keyin alohida progonda bosiladi.

Kompyuter interfeyslari yordamida rizografda nafaqat moddiy (odatiy qog'ozdagi) asl nusxa-maketni, balki bevosita IBM yoki Apple Macintosh kompyuterlaridagi axborotlarni ko'paytirish mumkin. RISO interfeyslari adadni tayyorlashda hujjatlarni qayta ishlashni soddalashtiradi, nusxalarning sifati yaxshilanadi. So'nggi modeldagi rizograflar kiritilgan kompyuter interfeyslariga ega bo'lib, kompyuter tarmoqlariga ulanishi mumkin.

Bosishdan keyingi ishlov berish uskunalari bilan to'ldirilgan zamonaviy rizograflar mini bosmaxonalar yaratishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston bozorida bir qator rizograf modellari mavjud. Har bir foydalanuvchi texnologik va iqtisodiy ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda o'ziga qulayini tanlashi mumkin.

Rizograflarning RP seriyasi eng takomillashgan modellar hisoblanadi. SHu model asosida rizografning asosiy ish printsiplari va asosiy mexanizmlarining sozlanishini ko'rib chiqamiz.

Bu seriyaning o'ziga xos xususiyati shuki, har bir rizografga yangi takomillashgan Risorint 3 interfeysi kiritilgan. U yordamida rasm, fotosurat, aralash matnli va rasmlil axborotga ishlov berishning eng yaxshi algoritmi avtomatik ravishda tanlanadi. Tasvir sifatini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar (liniatura tanlash, yarim tuslarni qayta ishlash usuli, keskinlikni oshirish va b.) rizograflardan foydalanish sohasini kengaytirishi mumkin. Interfeys xotirasini kengaytirish hisobiga ko'p sahifali axborotni saqlash imkoniyati yaratiladi. Interfeys mavjud bo'lganda, rizografning doimiy xotirasida tashkilotlarning firma blankalari, logotiplar, formulalar va boshqa tez-tez ko'paytiriladigan axborotlarni saqlash mumkin.

2.2. Rizografning qo'shimcha butlash jihozlari

Rizograflarga bosishgacha va bosishdan keyingi ishlov berish uchun mo'ljallangan bir qator butlash jihozlari taklif qilinadi.

SC 3500 interfeysi CR 1610 va boshqa rizograflarga ulanadi. 10 metrli kabelning mavjudligi rizografni qulay masofada joylashtirishga imkon beradi.

SC 7900 interfeysi RP seriyasidagi rizograflar uchun mo'ljallangan. Bosish tizi Adobe Post Script level 3. Istalgan kompyuterlar (IBM, Mac) ishlashi mumkin.

Riso-Net-B tarmoq kartasi rizografni bevosita kompyuter tarmog'iga ulashga imkon beradi.

Foydalanuvchi identifikatori. Bu qurilma rizograflardan foydalanishga ruxsat berishni sozlash imkoniga ega. Undan foydalanganda rizografda faqat maxsus raqamlangan elektron karta egalarigina ishlashlari mumkin. Maxsus stolga kiritilgan bunday karta rizograf klaviaturasining blokini yechadi va uskunadan foydalanishni boshlash imkonini beradi. Bunda foydalanuvchi identifikatori xotirasida foydalanilgan bosma qoliplari va tayyorlangan nusxalar haqidagi axborot saqlanib qoladi. Oddiy kartalardan tashqari, to'plamda boshqaruvchi karta ham mavjud bo'lib, u rizografning har bir foydalanuvchisi haqida axborotni saqlab qoladi. Keyinchalik bu axborotdan turli maqsadlarda (masalan, sarflanuvchi materiallarni taqsimlash uchun) foydalanilishi mumkin. Foydalanuvchi identifikatori tashkilotning bir necha bo'linmalari yoki bir necha foydalanuvchilar

tomonidan birgalikda foydalanishga mo'ljallangan rizograf sharoitida juda qulay hisoblanadi. Foydalanuvchi identifikatorlari rizografdan ruxsatsiz foydalanish yoki undan noto'g'ri foydalanish holatlarini oldini oladi.

Tahrirlash plansheti. Bu qurilma, agar aslnusxa qog'oz tashuvchida taqdim qilingan bo'lsa, aslnusxani maketlash va tahrir qilishga imkon beradi. Tahrirlash plansheti tasvirni bir necha zonalarga bo'ladi: ularga keyinchalik tegishli ishlov beriladi, masalan, tasvirning bir qismi fonga joylanadi, qolgan qismi esa boshqa rangda bosish uchun tayyorlanadi. Planshet qog'ozli aslnusxadagi ranglarni ajratish va turli maydonlarni turli bo'yoqlar bilan bosishga imkon beradi.

Almashtiriladigan qolip tsilindrlari bir necha rangda bosish uchun xizmat qiladi. Ularning ichida tegishli rangdagi bo'yoqli tuba joylashadi.

Stol-taglik rizograf ostiga qo'yilib, uni xona bo'ylab oson harakatlantirishga va undan qulay foydalanishga imkon beradi. Stol-taglik aylanuvchi qolip tsilindri keltirib chiqaradigan tebranishlarni so'ndiradi. Bundan tashqari, unda javonlarning mavjudligi sarflanuvchi materiallarni saqlashga imkon beradi.

Aslnusxalarni avtomatik uzatish qurilmasi (APO). Istalgan rizograf bu qurilma bilan jihozlanishi mumkin. Avtomatik uzatish qurilmasida 50 tagacha aslnusxa saqlash mumkin. Ular bosma qolip tayyorlash rejimida «Start» tugmachasiga bosilgandan keyin ketma-ket ravishda o'qiladi. APO ga bir vaqtda joylanadigan aslnusxalarning har biridan nechta nusxa bosilishini dasturlashtirishda bu qurilma juda qo'l keladi.

Adad ajratgich - bu qurilma orasiga rangli qog'oz tasmasini qo'ygan holda adadlarni ajratadi. Adad ajratgich APO dan aslnusxalarni uzatib ishlashda juda qulay. Yangi aslnusxani skanerlashdan va uni ko'paytirishdan oldir avvalgi adad rangli qog'oz tasmasi bilan ajratiladi.

Saralagichlar. 25 va 50 savatchaga mo'ljallangan ikki turdagi saralagichlar adadga bosishdan keyingi ishlov berish uchun xizmat qiladi. Ular bevosita rizograf bilan ulanadi va bosilgan nusxalarni savatchalarga joylashtiradi. Natijada har bir savatchada tayyor hujjat yig'iladi.

2.3. Rizografni ishga tayyorlash

Rizografni ishga tayyorlash quyidagi operatsiyalardan iborat bo'ladi: aslnusxalarni skanerlashga tayrlash, uzatish va qabul savatchalarini ishga tayyorlash, aslnusxa turiga bog'liq holda aslnusxa-maketga ishlov berish rejimini tanlash. Bosish rejimi rizografni boshqarish panelidan beriladi (albatta, rizografda ishla uni tarmoqqa ulash va bir qator majburiy yordamchi ishlarni bajarishdan boshlanadi).

Adadni tayyorlashdan oldin aslnusxa-maketga e'tibor qaratish va u rizografda bosish talablariga javob berishini baholash kerak.

2.4. Aslnusxalarga qo'yiladigan talablar

Rizografda ko'paytirishga mo'ljallangan aslnusxa va aslnusxa-maketlarga bir qator talablar qo'yiladi. Ularning bir qismi umumiy talablar bo'lib, matbaada qayta ishlashga mo'ljallangan barcha aslnusxalarga taalluqli bo'lsa, ba'zilar faqat rizografda ko'paytiriladigan aslnusxalarga tegishli.

Rizografda ko'paytiriladigan aslnusxalarga qo'yiladigan asosiy talablarni


ko'rib chiqamiz.

1. Rizografning modeliga bog'liq holda planshetli yoki cho'zishli skanerlardan foydalaniladi. Planshetli skanerli rizografda aslnusxa-maket shishaga qo'yiladi, uning ostida esa o'qish qurilmasi harakatlanadi. Cho'zishli skanerli rizografda aslnusxa-maket o'qish blokidan o'tkaziladi. Shunga bog'liq holda ikkinchi holatda yopishma, buklamlarga ega bo'lmagan yaxlit varaq aslnusxa-maket bo'lishi mumkin. Aks holda skanerlash qurilmasidan o'ishda bunday aslnusxa yirtilib ketishi yoki uni skaner umuman o'qimasligi mumkin. Planshetli skaner uchun chegaralashlar yo'q. Bundan tashqari, planshetli skanerga ega rizografda turli qalinlikdagi aslnusxalar bilan ishlash mumkin. Planshetli skanerning buyum shishasiga maksimal o'lchami A3 va og'irligi 10 kg gacha bo'lgan varaqli yoki muqovalangan aslnusxalarni qo'yish mumkin. Aslnusxalar shaffof materialda (kalka yoki plenkada), chizma vatmanida, bir necha qavat qog'ozda va boshqa ko'rinishda tayyorlanishi mumkin.

2. Aslnusxa-maket qog'ozlarining faqat bir tomonida qayta ishlanadigan axborot bo'lishi lozim. Aks holda skanerlashda qog'ozning orqa tomoni ko'rinishi va tasvir sifati buzilishi mumkin.


3. Axborotning aslnusxada taqsimlanishi ham muhim hisoblanadi. Aslnusxaning tepa qismida katta o'lchamli plashkalar ko'rinishidagi bosiluvchi maydonlar noxush holat hisoblanadi. Bu holatda bosishda bosiluvchi material bo'yoq tsilindriga yopishib qoladi va qabul savatchasiga chiqmasligi mumkin. Varaqning chiqish yo'nalishidagi separator ushlab qola olmay qolishi yoki surkatib yuborishi mumkin. Odatdagi variantda varaqlar qog'ozning tarangligi hisobiga tsilindrda o'zi ajraladi. Shuning uchun aslnusxa-maket tayyorlashda katta fotosurat va kichik o'lchamli shrift va o'girma usulidan foydalanmagan ma'qui. RP seriyasidagi uskunalarda bu muammo hal qilingan.

4. Aslnusxa-maket yon tomonlaridan kamida 3 mm, tepa tomondan kamida 5 mm hoshiyaga ega bo'lishi lozim (rasm 3). Aks holda bosiluvchi varaqning chekkalari qolip tsilindriga yopishib qolishi va uni qabul savatchasiga chiqarishni qiyinlashtirishi mumkin.



Rasm 3. Asl nusxa-maket hoshiyalarining nisbati

5. Asl nusxa-maketdan bosishda katta yuzali bosiluvchi maydonlar varaqning rizografda harakatlanish yo'nalishiga simmetrik joylashishi lozim. Simmetriyaga amal qilinmaganda (rasm 4) varaq tsilindrdan ajralganda buralishi mumkin. Natijada varaq qabul savatchasiga etib bormay tiqilib qoladi. Shuning uchun aslnusxa-maketda to'q joylar simmetrik joylashishi lozim.



Rasm 4. Bosiluvchi yuza maydonlarining nisbati

6. Ko'p rangli tasvirni bosishda turli rangli maydonlar bir-biridan 3-5 mm masofada joylashishi lozim.

2.5. Rizografning ishlash printsipli

Rizografning boshqaruv pultida zaruriy rejimlarni tanlab va «Start» tugmachasini bosib, nusxa olish bilan bog'liq asosiy jarayonlar boshlanadi.

Zamonaviy rizograf ancha murakkab elektron-mexanik qurilma hisoblanadi. Uni to'rtta asosiy bo'limdan tashkil topadi, deb hisoblash mumkin: skaner (planshetli yoki cho'zishli), bosma qolipini tayyorlash mexanizmi, bosish mexanizmi va qog'ozni harakatlantirish mexanizmi.

2.6. Qog'ozni harakatlantirish mexanizmi

Qog'ozni uzatish va chiqarish mexanizmlari rizografning asosiy mexanik komponentlari hisoblanadi. Qog'ozni uzatish mexanizmi juda muhim. Rizograf

sifati va qalinligi bo'yicha turli qog'ozlar bilan ishlashga mo'ljallangan. Bundan tashqari, qog'oz uzatish barqarorligi bosish tezligiga muvofiq bo'lishi lozim.


Qog'oz uzatish mexanizmi ikki komponentdan tashkil topadi: birlamchi va ikkilamchi mexanizmlar.

Qog'oz uzatish jarayoni uzatish savatchasining qog'ozni harakatlantirish zonasiga ko'tarilishidan boshlanadi. Savatcha faqatgina datchik tomonidan varaq aniqlangandagina ko'tariladi. Birlamchi mexanizm qog'ozning har bir varag'ini ushlab oladi, ikkilamchi mexanizm uni bosish zonasiga siljitadi. Bu jarayon qat'iy belgilangan vaqtda amalga oshadi. Bunda qog'oz holatidagi o'zgarishlar birlamchi mexanizm bilan to'g'rilanadi. Ushlab oluvchi rolik taxlamdagi varaqni ko'tarishidan uzatish boshlanadi. TSilindr aylanadi, qog'oz varag'i birinchi uzatish zonasidan ikkinchi uzatish zonasiga beriladi (rasm 5 a).

Ikkinchi uzatish zonasiga berilgan varaq yo'naltiruvchilar va moslovchi valiklar bilan bukilish hosil bo'lgunga qadar to'xtatiladi (rasm 5 b). Keyin varaq yo'naltiruvchi valikning aylanishini kutadi. Ikkinchi uzatish zonasi yo'naltiruvchi va moslovchi valiklari aylanadi va qog'oz bosish zonasiga uzatiladi (rasm 5 v).

Ikkinchi uzatish zonasidan qog'oz etib kelganda (rasm 5 g) siqish valigi ko'tariladi va bosish boshlanadi. Siqish valigi baraban yuzasi bilan kontaktlashadi va aylanishni boshlaydi. Siqish valiklari tsilindrga tekkanda unga ajratgich yaqinlashadi va ajratgichning ventilyatori ishlay boshlaydi. Yo'naltiruvchi valik qog'oz varag'ini o'tkazib yuborish uchun ko'tariladi (rasm 5 d).

Bosilgan varaq ajratgich ventilyatoridan kelatgan havo oqimi yordamida barabandan ajratiladi. Keyin varaq transporter tasmasida va so'rib olish ventilyatori yordamida qabul savatchasiga o'tkaziladi (rasm 5 e). Moslovchi valik navbatdagi varaqni uzatish uchun yo'naltiruvchi valika bosiladi (rasm 5 j).



Rasm 5. Rizografda qog'ozni uzatish va qabul qilish bosqichlari

Harakatlantirishning ishonchli mexanizmi sifatli nusxa olishda muhim jihat hisoblanadi. Qog'oz uzatish friksion mexanizmlari siqish sharoitlarini sozlab, roliklar sonini oshirib va boshqa usullar bilan bosish jarayonida yuzaga keladigan kb muammolaorni hal qilish mumkin.

2.7. Bosma qolipini tayyorlash

Bosma qolipini tayyorlash yuqori sifatli bosmaning garovi hisoblanadi. Bundan tashqari, bosma qlip tayyorlash tezligi uskunaning butun ishiga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun RISO firmasi eng yaxshi qlip materiallarini

yaratishga va bosma qolipini tayyorlashning samarali jarayonlarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratadi.

Bosma qolipini tayyorlashning boshlang'ich bosqichida aslnusxa skanerlanadi va olingan axborot raqamli qlipga aylantiriladi. Tasvirga ishlov berish protsessori optik skanerlovchi tizim, fotoelektrik elementlar va signallarni o'zgartirish tizimlaridan tashkil topadi. Skanerlash optik tizimining o'lchami skanerning o'lchami bilan aniqlanadi. Ancha ixcham bo'lgani hlda RP seriyasi rizograflari kulrangning 256 tusini farqlaydi va 600 dpi imkonli qobiliyatda ishlaydi. Raqamli signallarga aylantirilgan axborot termoboshchaga beriladi.

Termoboshchanning asosiy vazifasi skanerdan olingan raqamli signallarga muvofiq qolip materialida teshiklar hosil qilishdan iborat. Olingan raqamli signallar termoboshcha mikroelementlarini faollashtiradi, u esa o'qilgan aslnusxaga muvofiq termosezgir master-plenkani teshadi.

O'qish skanerining va teshiklarni o'yuvchi termoboshchanning harakatlari muvofiqlashishi uchun ularga «miya» kerak bo'ladi. Bu miya nafaqat bu ikki jarayonni bog'laydi, shuningdek, uskunaning boshqa funktsiyalarini ham nazorat qiladi:

- boshqaruv pultidan kiritilgan foydalanuvchi talablariga muvofiq bosma qolip tayyorlash jarayonini faollashtirish;

- skaner, termoboshcha va masterning ish vaqtini belgilash;
- als nusxaga muvofiq qolip materialini teshish maydonini tanlash;
- (masshtab va tasvir yorqinligini) oshirish/kamaytirish;
- tahrirlash funktsiyalari: o'chirish, qo'yish, joy tanlash va b.

Bosishni boshlashdan oldin datchik yordamida qolip tsilindrda bosma qolipining mavjudligi tekshiriladi. Agar tsilindrda qolip bo'lmasa, boshqaruv panelida xatoning sababi chiqariladi va bosish to'xtatiladi.


Sifatli nusxa olish uchun bo'yoqni bosma qolipga uzatish tizimi muhim ahamiyatga ega. Bu tizim tarkibiga quyidagilar kiradi: bo'yoqli tuba, bo'yoq nasosi. U bo'yoqni bo'yoq valigiga beradi va tekislash valigi bilan kontaktda bo'ladi. Aylanuvchi valik ular orasida hosil bo'lgan bo'yoq qatlamidan bir qismini oladi va

uni qolip tsilindrining ichki yuzasiga surtadi. Bu yuza metall to'rdan tayyorlangan. Undan o'tgan suyuq bo'yoq qolip tsilindrining tashqi yuzasiga tortilgan bosma qolipining ichki tolali qatlamiga shimiladi. Keyin qolip tsilindrining ichki yuzasi va termoboshcha tomonidan bosma qolipda ochilgan teshiklardan bo'yoq siqib o'tkaziladi. Buning natijasida bo'yoq bosiluvchi materialga ko'chadi. Nusxa olishning butun jarayoni bosiluvchi materialning ikkita tsilindrik yuza orasidan o'tishida amalga oshadi.

Tayyorlashga signal berishdan boshlab birinchi nusxa olishgacha bo'lgan bosma qolip tayyorlash vaqti 11 -24 soniyani tashkil qiladi.

Rizografning master-plenkasi uch qatlamdan tashkil topadi (rasm 6):

- a) yelimlovchi va to'ldiruvchilarga ega bo'lmagan mustahkam, lekin g'ovakli qog'oz matosi;
- b) qog'oz matoni yuqori qatlam bilan birlashtirib turuvchi adgezion qatlam;
- v) ustki yupqa polimer qatlam.



Rasm 6. Master-plenkaning tuzilishi: 1 - polimer qatlam; 2 - adgezion qatlam; 3 - qog'oz taglik

Master-plenkaning tuzilishi qolip silindri yuzasiga zich yotishni, geometrik o'lchamlari o'zgarmagan holda bir tekis taranglashishni ta'minlashi lozim. Bunga master-plenkaning tarkibiy qismlarini to'g'ri tanlab erishiladi.

Adgezion qatlam plenkali polimer qatlam va qog'oz taglikning mustahkam birikishini ta'minlashi lozim. Bunda plenkada teshik ochilgandan keyin polimer

qatlam bo'yoqni o'tkazishi yoki plenka bilan birga teshilgan bo'lishi lozim.

Plyonkali qatlam termik ta'sirga nisbatan adgezion xossalarga ega bo'lmasligi lozim, ya'ni qizdirilgan igna tekis dumaloq teshik ochishi lozim. Polimerning mustahkamlik xossalari kamida 4000 nusxa bosishda teshilgan plyonkaning yemirilishga chidamliligini ta'minlashi lozim.

2.8. Chortoq tumani sharoitida mini bosmaxona uchun asosiy uskunalarni tanlash Epson Perfection V200 Photo planshetli skaneri



Asosiy tavsifnomalari:

Tipi	Planshetli skaner
Aslnusxa turi	YorugTik qaytruvchi
Skanerlash uslubi	Bir o'tishli skanerlash
Skanerlovchi soha (maks.)	215x297 mm
Imkonli qobiliyat	Optik: 4800x9600 dpi Interpolyatsion: 12800x12800
Skanerlash tezligi	35 mm li rangli pozitiv fotoplyonkani 4800 dpi imkonli qobiliyatda skanerlashda 64 soniya/sahifa (oliy sifat) A4 o'lchamli rangli aslnusxani skanerlashda 7 soniya/sahifa A4 o'lchamli rangli aslnusxani 700 dpi imkonli qobiliyatda skanerlashda (Line-art sifat) 16 soni/sahifa A4 o'lchamli rangli aslnusxani 600 dpi imkonli qobiliyatda skanerlashda (foto sifat) 30 soniya/sahifa
Rang chuqurligi	Rangli tasvir: 48 bit
Optik ichlik (maks.)	3.2D
Lampa turi	Sovuq qatodli flyuorestsent lampa
Oldindan ko'rish qobiliyati	mavjud
Skanerlanadigan ob'ekt	Qog'oz: A4 210x297 mm 35 mm fotoplyonka 35 mm slayd-plyonka
Tizim talablari (min.)	Apple Mac OS X10.2.8 MS Windows 989E/ME/2000/Xp
Ulanish turi	USB, USB 2.0
Interfeys	USB 2.0 Tip B
Elektr iste'moli	quvvat adapteri
OTchamlari, og'irligi	28,0x5,7x43,0 sm 2,6 kg

Canon LBP-330010 lazerli printeri



Umumiy tavsifhomalari Bosish turi: oq-qora Bosish texnologiyasi: lazerli
Maksimal o'lchasi: A4 Avtomatik ikki tomonlama bosish: mavjud Oq-qora bosish
uchun maksimal imkonli qobiliyat: 600x600 dpi Bosish tezligi 21 sax/min (oq-qora
A4) Qizish vaqti: 7 soniya

Birinci nusxaning chiqish vaqti: 9 coniya (oq-qora) Sarflanuvchi materiallar

Bosiluvchi materiallar: kartochkalar, plenkalar, etiketkalar, silliq qog'oz,
konvertlar, g'adir-budir qog'oz

Oq-qora kartridj resursi: 6000 nusxa

Kartridjlar soni: 1

PostScript: mavjud emas

savatchalar

250 varaq qog'oz uzatish (standart)

65 varaq qog'oz chiqarish (standart)

Qo'lda uzatish savatchasi sig'imi: 1 varaq

Xotira/Protsessor

Xotira hajmi: 8 Mb

Interfeyslar

Interfeyslar USB 2.0

Qo'shimcha axborot

OS Windows, Linux ni qo'llab-quvvatlash

Tizimga qo'yiladigan minimal talablar: Intel Pentium +16 Mb RAM

Iste'mol quvvati: (ish vaqtida) 806 Vt

Iste'mol quvvati (kutish vaqtida) 4 Vt

Ishlashdagi shovqin darajasi: 53 dB

Gabarit o'lchamlari: 370x258x376 mm

Og'irligi: 11 kg

HP Color LaserJet CP2025n (CB494A) rangli lazerli printerlar



HP Color LaserJet CP2025n (CB494A) rangli printerining tavsifnomalari

Oq-qora bosish tezligi: (oddiy rejim, A4) 20 sah./min. gacha.

Rangli bosish tezligi: (oddiy rejim, A4) 20 sah./min. gacha.

Aniq tezlik tizim konfiguratsiyasi, dasturiy ta'minot, printer drayveri va hujjatning murakkabligiga bog'liq holda o'zgaradi.

Birinchi rangli nusxaning chiqish vaqti: (A4, shaylik rejimi) 17,8 soniya.

Birinchi oq-qora varaqning chiqish vaqti: (A4, shaylik rejimi) 17,8 soniya.

Oq-qora bosma sifati: (oliy sifat rejimi) 600 x 600 dpi gacha.

Rangli bosma sifati: (oliy sifat rejimi) 600 x 600 dpi gacha.

Bosish texnologiyasi: Ketma-ket rangli lazerli bosma

Yuklama: (A4, oyiga) 40000 varaqqacha.

Yuklama sifatida bir oyda bosilgan maksimal varaqlar soni tushuniladi. Bu qiymat ushbu mahsulotning ishonchliligini solishtirishga va alohida foydalanuvchilar imkoniyatlarini baholashga imkon beradi.

Tavsiya qilinadigan oylik bosish hajmi: (sahifa) 750-2000

To'plamdagi xotira: 128 Mb

Maksimal xotira: 384 Mb

Protsessor tezligi: 540 MGts

Qattiq disk sig'imi: mavjud emas

Printerni boshqarish tili: HP PCL 6, HP PCL 5c, emulyatsiya HP Postscript 3 daraja.

Qog'ozni boshqarish

Qog'oz uchun standart savatchalar: 2

Qog'oz uchun savatchalarning maksimal soni: 3

50 ta varaq uchun savatcha, 250 ta varaq uchun savatcha

Bosilgan tomonini pastga qilib qabul qilish: 150 varaq

Ikki tomonlama bosish imkoniyati

Bosiluvchi materiallarning o'lchamlari:

savatcha 1: A4, A5, A6, B5 (JIS), 10 x 15 sm, 16K, konvertlar (ISO DL, ISO C5, ISO B5), otkritkalar (standart #10, bittali JIS, ikkitali JIS);

Savatcha 2 va qo'shimcha savatcha 3: A4, A5, A6, B5 (JIS), 10 x 15 sm, 16K, konvertlar (ISO DL, ISO C5, ISO B5), otkritkalar (bittali JIS, ikkitali JIS)

Bosiluvchi materiallar:

Qog'oz (turli xildagi), plenklar, nakleykalar, konvertlar

Ulanish: Standart ulanish

Port Hi-Speed USB 2.0; kiritilgan Fast Ethernet 10/100Base-TX

O'lchami va og'irligi:

savatcha 1: 60 - 176 g/m² (220 g/m² gacha); savatcha 2, qo'shimcha savatcha 3: 60 - 163 g/m² (176 g/m² gacha - otkritkalar, 220 g/m² gacha - silliq foto qog'oz)

O'lchamlari: (E x U x B) 405 x 454 x 322 mm

Og'irligi: 22.7 kg

Tizimga qo'yiladigan minimal talablar:

Microsoft® Windows® 2010, Server 2003: istalgan protsessor Pentium® II yoki yuqoriroq, 64 Mb tezkor xotira, 250 Mb qattiq diskdagi bo'sh joy, CD-ROM yuritmasi, port USB; (faqat printer drayveri).

Moslashadigan oreratsion tizimlar:

Microsoft® Windows® 2010, XP Home, XP Professional, Server 2003, XP Media Center, XP Professional x64; Windows Vista®; Mac OS X v10.2.8, v10.3, v10.4 va yuqoriroq.

Energiya sarfi: (ishchi rejim) 445 Vt

Energiya sarfi: ("kutish" rejimi) 6,7 Vt

Tavsiya qilinadigan foydalanish haroratlari: 15 dan 27° C gacha.

To'plamda:

Komplektatsiya

Printer HP Color LaserJet CP2025n, ta'minot kabeli, kompakt-disk, foydalanish bo'yicha yo'riqnoma, 4 ta boshlang'ich kartridj HP Color LaserJet (C, M, Y, K), uning resursi 1,200 varaq (ISO/IEC 19798 ga muvofiq).

Riso Mz 770 rizografi



Bir yoki ikki rang bilan tez yoki samarali bosish:

Endi tanlash imkoniyati mavjud: bitta rang bilan bosish yoki ikkinchi rangning yorqinligi va jozibadorligini qo'shish, ikkala bo'yoqni bir vaqtda berish mumkin. Riso Mz 770 rizografi ixcham uskuna sharoitida bunday imkoniyatni taqdim etadi. Jozibador va yuqori sifatli hujjatlarni bosish juda oson.

Bir rangli bosish:

Ba'zi hujjatlar ikkinchi rangni talab qilmaydi, bunday holda Riso Mz 770 bitta rang bilan qulay va oson bosishni ta'minlaydi.

Ikki rangli bosish:

Ikki rangli bosish ham bir rangli bosish kabi juda oson va qulay. Riso Mz 770 rizografida etakchi texnologiyalar qo'llanilib, ular tufayli har bir rang uchun alohida uchun asl nusxalarni tayyorlash zarurati yo'q. Dizaynerlik funktsiyalari yordamida asl nusxani ranglarga ajratishning turli texnologilarni qo'llash mumkin.

Uyg'unlashgan bosma:

Agar istasangiz, bosish ishlarini ikki qismga bo'lish mumkin, adad dastlab bir rang bilan bosiladi, keyin ikkinchi rang bilan. Masalan, testlar matnini qora rang bilan bosish, tekshirish varag'ida esa savollarni qizil rang bilan bosish mumkin.

Master plyonka tayyorlash:

Bir rangli bosishda master - plyonka tayyorlash uchun 24 soniya va ikki rangli bosishda 57 soniya talab qilinadi. SHunday qilib, bosishga tayyorlash 1 daqiqadan kamroqni talab qiladi.

Riso Mz 770 rizografming skaneri aslnusxani 600 dpi imkonli qobiliyatda o'qiydi, bu tasvirning mayda detallarini ham master - plyonka tayyorlash blokiga ideal darajada uzatishda kafolatlaydi.

D 600 dpi imkonli qobiliyatida bosish.

D 600 dpi imkonli qobiliyat chiziqlar silliqqlangan holda fotosuratlar yarim tuslarini nozik qayta ishlash va mayda shrift hamda detallarni ideal aniqlikda bosishni ta'minlaydi.

Riso - an'anaviy tezlik.

Rizograflar butun dunyoda unumdorligi va bosma sifati bilan mashhur. Riso Mz 770 rizografi ham rizografiya an'alarini to'liq davom ettiradi. Aslnusxani skanerlashdan boshlab, master - plyonka tayyorlash va bosishgacha bo'lgan barcha ishlar to'xtashsiz tez amalga oshiriladi.

Bitta progon - ikkita rang.

Riso Mz 770 rizografi ikkita biraban bilan jihozlangan bo'lib, ular bitta progonda 2 ta rang beradi hamda shu tarzda bosmaning unumdorligi va samaradiligini oshiradi. Maksimal bosish tezligida ham (150 nusxa/daqqa) Riso Mz 770 rizografi ranglarning ideal moslashuvini ta'minlaydi.

Bosmaning yuqori tezligi.

Bosmaning maksimao tezlaigi - 150 nusxa/daqqa qisqa vaqt ichida katta adadni bosishni ta'minlaydi. Mingta nusxani bosish 7 daqiqadan kamroqni talab qiladi.

"Engil ranglarga ajratish" funksiyalari.

Riso Mz 770 rizografi "engil ranglarga ajratish" funksiyasiga ega bo'lib, nafaqat ikkita rang uchun ikkita master - plyonka tayyorlashni ta'minlaydi, balki asl nusxani ranglarga ajratishning bir necha uslublarini tanlashni taklif qiladi.

Mantiqiy boshqaruv paneli.

Riso Mz 770 rizografming boshqaruv paneli 2 qismga bo'linadi, ularning

ikkisi ham foydalanuvchi uchun intuitiv jihatdan tushunarli. O'ng tomonda rizograf bilan asosiy operatsiyalarni bajaruvchi odatiy tugmachalar joylashgan. Chap tomonda Sk li sensorli panel joydashgan bo'lib, bir qator qo'shimcha funktsiyalarga imkon beradi. Sensorli panel yorqin va tushunarli. Katta va yorqin ekran maxsus ishlab chiqilgan bo'lib, foydalanuvchi uchun intuitiv tushunarli. Menyudagi funktsiyalar mantiqiy jihatdan guruhlangan. O'zgaruvchan ekranlar va qaydlar foydalanuvchi uchun zarur bo'lgan funktsiyalarni tez topib beradi.

Har bir bosma silindrini alohida boshqarish.

Har bir bosma silindri bosma zichligini avtonom boshqarish va bosma holatini individual sozlashga ega. Tezlikni o'zgartirish tugmachalari ikkala silindrning aylanish tezligini boshqaradi.

Vazifani bajarish indikatori.

Bu indikatorlar master - plyonka tifyorlash jarayoni va adadni bosish jarayonini vizual nazorat qilishga mo'ljallangan. Bu strelkalar, ko'rsatkichlar tufayli buyurtmani bajarish qanday holatda ekanligini doim bilish mumkin.

Old tomondan yuklanadigan engil bosma silindrlari.

Rizograflardagi bosma silindrlari hech qachon bunday yengil bo'lmagan. TSilindrni old tomondan qulay joylashtirish va engil vazni istalgan foydalanuvchi uchun bir rang tsilindrini ikkinchisiga oson almashtirishga imkon beradi.

Bo'yoq tubasini o'rnatishning soddaligi.

Bo'yoqli tubani almashtirish juda sodda bo'lib, bir necha soniya talab qiaadi: tubani bosma tsilindri bshlimiga tiqish va bir oz burash kerak xolos.

Master - plyonka tayyorlashning sirpanuvchi bloki.

Master - plyonka tayyorlash bloki stolning tortmasi singari oson sirpanadi. Master - plyonkani almashtirish uchun ishlatilgan master - plyonka ruloni kassetasini chiqarish va yangi rulonni o'rnatish kerak.

Ko'p qirrali dizaynerlik funktsiyalari.

Riso Mz 770 rizografi o'zida rizogafiya texnologiyasining so'nggi yutuqlarini jo qilgan holda asmusxalarga dizaynerlik ishlov berish bo'yicha keng imkoniyatlarga ega, shu jumladan mayda elementlarni ham tahrirlash va aniq

ranglarga ajratish.

Riso - redaktor.

Riso - redaktor yordamida asl nusxaning kerakli qismlarini oson ajratish va ular qaysi rangda bosilishini ko'rsatish mumkin. Mayda elementlarni ham ajratib ko'rsatish mumkin. Riso - redaktor alohida matn bloklari, fotosuratlar, rasmdarni ajratish va ularni qulay joylashtirish imkonini beradi.

Oldindan ko'rish rejimi.


Bu rejim bosishdan oldin ikkala rang asl nusxalarini ko'rish va ularning qanday chiqishiga ishonch hosil qilish imkonini beradi. Tasvir SK displey ekraniga chiqariladi, batafsil ko'rish uchun kattalashtirish imkonini mavjud.

Texnik tavsifnomalari

Master-plenka tayyorlash va bosish usuli	Raqamli usulda master-plyonka tayyorlash va to'liq avtomatlashgan trafaret bosma
Asl nusxa turi	Kitob (10 kg gacha), varaq
Asl nusxa o'lchami	Ekspozitsiya shishasidan foydalanilganda: 50x90 mm, 297x420 mm. APO dan foydalanilganda: 90x140 mm, 297x420 mm
Asl nusxa zichligi	Ekspozitsiya shishasidan foydalanilganda: 10 kg gacha APO dan foydalanilganda: 50-128 g/m ²
Bosma qog'ozi o'lchami	100x148 mm, 297x420 mm
Qog'oz uzatish savatchasi sig'imi	1000 varaq
Bosma qog'ozi zichligi	46-210 g/m ²
Bosmaning imkonli qobiliyati	600 dpi
Master-plenka tayyorlash vaqt	Ikki rangli bosish uchun 57 soniya Bitta rangda bosish uchun 24 soniya
Bosish maydoni	291x413 mm
Bosishda masshtablash koeffitsienti	Masshtablash: 50-200% Masshtablashning standart koeffitsientlari (kattalashtirish) 163, 141, 122, 116%; (kichraytirish) 87, 82, 71, 61%
Bosish tezligi	60-150 nusxa/daqiq
Nusxa holatini sozlash	Vertikal bo'yicha: ±15 mm Gorizontal bo'yicha: ±10 mm
Bo'yoq	Bittatubada 1000 ml
Foydalanilgan masterlar uchun boks hajmi	80 varaq
Foydalanuvchi interfeysi	Buyurtmaning bajarilishi indikatoriga ega bo'lgan SK boshqaruv paneli
Funktsiya va rejimlar	RISO redaktor, ranglarga ajratish, rastrlash, kontrastni qo'lda va avtomatik sozlash, bo'yoqni tejash rejimi, masterni yangilash, oldindan ko'rish va b.

Elektr ta'minoti	220V-240V, o'zgaruvchan tok 50-60Gts
Gabarit o'lchamlari	1605x725x730 mm (ExUxB)
Og'irligi	168 kg
Qo'shimcha qurilmalari	- bo 'yoq va master uchun keys - rangli baraban aslnusxalarni avtomatik uzatish qurilmasi adadlar ajratgichi foydalanuvchi identifikatori zich qog'ozni uzatish qurilmasi interfeys platasi tarmoq kartasi

Bostitch SM-CE25 Stitchmaster simda tikish uskunasi



Stitchmaster ixcham simda tikish uskunasi; Bitta boshchasi ixcham uskuna;

Ilib va ustidan tikishga mo'ljallangan universal stol bilan jihozlanadi; Bittali qatmlar bilan hamda 150 qatm/daqiqa tezlikda uzluksiz rejimda tikish mumkin;

Kerakli chuqurlikka sozlanadigan datchik - viklyuchatel bloklarni pedalga bosmasdan mahkamlash imkonini beradi;

Taxlamlarni burchagidan mahkamlash uchun qo'zg'aladigan shtiftlar - chegaralovchilar ko'zda tutilgan;

710 nm gacha enlikda qo'zg'aladigan yon tayanchlar mahkamlanadigan materialni yaxshi ushlab turadi;

Uskuna balandligi sozlanadigan stoldagi taglik bilan jihozlanadi, istalgan ishonchli asosga mahkamlanishi mumkin;

Vazifasi

Idora va bosma salonlarida kam adadli ishlarni bajarish uchun;

Bosma mahsulotini mahkamlash, yorliqlarni mahkamlash, ko'p qatlamli konvertlarni mahkamlash uchun ishlatilishi mumkin.

Texnik tavsifnomalari:

Tikish boshchalarining maksimal soni: 1

Tikish ilib/ustidan;

Unumdorlik: 150 tsikl/daqiqa;

Standart to'plamdagi boshchalar turi: 2001;

Ilib tikishda maksimal qalinlik: 6.4 mm

Sim dumaloq 0.36 - 0.63 mm

Sim tekis 21x25 mm


Ish stoli chuqurligi: 127 mm

Ish stoli eni: 406 mm

Elektrta'minoti: 220V/50Gts

Og'irligi 20.5kg

Fold Master 220 SA/Eurotold 220 SA buklash uskunasi



Tafsifnomalari:

Fold Master 220 SA - varaqni vakuumli uzatadigan professional avtomatik buklash uskunasi hisoblanadi.

Fold Master/Eurotold 220 SA uskunasi varaqning qalinligiga avtomatik sozlanadigan ikkita buklash kassetasiga ega. Unumdorlik 70 ming varaq/soat. Uskuna A3+ o'lchamli zichligi 240 g/H~bo'lgan qog'ozlar bilan ishlaydi.

